

Yo‘ldosheva Ozoda Sherzod qizi

Nizomiy nomidagi O‘zMPU

Tarix fakulteti kechgi bo‘lim

401-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, dots. Yakobjanov J.J

Annotatsiya: *Maqolada Chig‘atoy ulusi, uning davlatchilik faoliyati haqida so‘z yuritiladi. Davlat boshqaruvida asosiy tamoyillar, soliq tizimi , qo‘shin tuzilishi yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Chig‘atoy, Chingizxon, Yasoq qonunlari, Chig‘atoy ulusi, Buyuk yasaq.*

Abstract: *The article discusses the Chagatai ulus and its statehood activities. It highlights the main principles of state administration, the tax system and the structure of the army.*

Keywords: *Chagatai, Genghis Khan, Yassa laws, Chagatai Khanate, Great taboo.*

Абстрактный: *В статье рассматривается Чагатайский улус, его государственная деятельность. Освещаются основные принципы управления государством, налоговая система, структура войск.*

Ключевые слова: *Чагатай, Чингизхан, Ясский законы, Чагатайский улус, Большой закон.*

Chingizxon asl ismi Temuchin Mo‘g‘ullar davlati asoschisi, mohir sarkarda. Ko‘plab janglardagi g‘alaba tufayli hadsiz-hisobsiz bepayon hududlar uning qo‘l ostida birlashadi. Chingizxon o‘z davlati boshqaruvida yaqin insonlariga tayanib ish kuradi. Xususan, Chingizxon farzandlari hamda nevaralari 10000 dan ortiq bo‘lgan va ularning har biriga bir yurt boshqaruvini topshirgan.

Ulkan hududlarga ega bo‘lgan davlatni bir markazdan turib boshqarish murakkabligi jihatidan Chingizxon 1224-yilda mamlakatni 4 ta o‘g‘li o‘rtasida taqsimlab beradi. Jo‘ji, Chig‘atoy, O‘qtoy, To‘lilar davlat boshqaruviga tayinlanishadi. Ular o‘zlariga taqsimlab berilgan hududlar boshqaruvida Chingizxonga bo‘ysinishsada amalda deyarli mustaqil edilar. Chig‘atoy ulusi. Boshqaruv taqsimoti natijasida Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoy yurtimiz hududlariga egalik qildi. U boshqaruvidagi hududlarda Chig‘atoy ulusini tashkil etadi. Chig‘atoy ulusi 1224-1404-yillarda mavjud bo‘lgan¹⁵. Ulus nomi hukmdor Chig‘atoy nomidan olingan. Chig‘atoyxon davlatni 1224-1242- yillarda idora etgan. Chig‘atoyxon Chingizxonning Burta xotun rafiqasidan bo‘lgan farzandi hisoblanadi.

¹⁵ Вохидов Ш. Холикова Р. “Урта Осиё хонликлари давлат бошкарви тарихидан”. 2006 й. “Янги аср авлоди”. Б-256.

Chigʻatoy zimmasida mamlakat qonun-qoidolari, udumlari va eng asosiysi Chingizxon yasosining beistisno bajarilishi yuklatilgan edi.

Dastlab Chingizxon tomonidan Chigʻatoy tasarrufiga Movorounnahr, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hududlari berilgan. XIII asr oxirlarida Chigʻatoy ulusi oʻzining eng yuqori choʻqqisida Orol dengizining janubida Amudaryodan to hozirgi Moʻgʻuliston va Xitoy chegarasidagi Oltoy togʻlarigacha choʻzilgan. Uning poytaxti dastlab Elsuvi Ili daryosi boʻyida joylashgan edi.

Chigʻatoy ulusi davlat boshqaruvida yasoq qonunlari ustuvor boʻlgan. Chingizxon yasosi deb ham tilga olinadi. “Buyuk yasaq” nomini olgan qonunlar toʻplami Chingizxon boshchiligidagi moʻgʻul qabilalari tomonidan Onon daryosi boʻyida 1206-yilda qabul qilingan¹⁶. Buyuk yasoq oʻrta asrlar moʻgʻul huquqi toʻgʻrisidagi asosiy yozma manba yodgorlikdir. Ushbu qonunlar toʻplami shunchalik muhim boʻlganki, “Oltin daftar” bilan birga xon xazinasida saqlangan. Juvayniyning malumotlariga koʻra Yasoq qonunlari uygʻur yozuvida tumor shaklida yozilgan. Chingizxon Yasoq qonunlarining bir qismi bizgacha yetib kelgan.

Chigʻatoy ulusida davlatchilik masalalari ulus tashkil etilganda, asosan, yasoq qonunlari asosida olib borilgan boʻlsa keyingi davrlarda boshqa qoʻshimchalar ham qoʻshilgan. Xususan, Chigʻatoy hayvonlarni soʻyishni hamda kunduz vaqtda suvga tushishni taqiqlaydi. Musulmonlar qilgan murojaatlariga esa Chigʻatoyxon “murdor goʻshtni yeyaveringlar” deb javob qaytaradi¹⁷.

Din boʻyicha ham oʻzgarishlar roʻy beradi. Qisqa vaqt davlat boshqaruvida boʻlgan Elchigadoy davrida katolik mazhabi targʻiboti boshlanib ketadi. Ayrim tarixiy adabiyotlarda Urganchda katolik eparxiyasi 1310- yildayoq tashkil etilganligi keltiriladi. Keyingi hukmdor Tarmashirinxon 1331-1334-yillarda hokimiyat tepasida boʻladi. Tarmashirinxonning islomga utushi moʻgʻul xonzodalari orasida unga qarshi noroziliklarni keltirib chiqaradi. Undan keyingi hukmdor Buzanxon esa xristianlar va yahudiylarga homiylik qiladi. Ularga oʻz ibodatxonalarini tiklash va qurishga ruxsat beradi.

Buzanxon va Chenkshixon nafaqat islom diniga balki oʻtroq shaharlar aholisi bilan yaqinlashish, turkiylashish, oʻtroqlashishga qarshi boʻlishadi. Bunday sharoitda moʻgʻullar orasida bulinish yuz beradi. Yani oʻtroqlashuv hayotiga oʻtishni istaydiganlar va koʻchmanchi hayotni maqul koʻrganlar. Ular XIV asrda “qoraunas” va “jete” deb atalgan¹⁸. Bu boʻlinish, ayniqsa, Muborakshoh hamda Baroqxonlarning islomni qabul qilishi natijasida yanada tezlashadi.

Chigʻatoy ulusi tashkil etilishi bilan amalga oshirilgan dastlabki chora-tadbirlardan biri soliq tizimi edi. Bular orasida yer soligʻi -kalon joriy etilib, bu soliq hosilning oʻndan bir qismi miqdorida yigʻilgan. 1235-yildagi qurultoyda esa chorvodorlar uchun qopchur soligʻi joriy etiladi¹⁹. Unga koʻra, har 100 chorvadan bittasi soliqqa

¹⁶ Juvayniy. “Tarixi Jahonkusho” T.. 1996. B-145.

¹⁷ Mirzo Ulugʻbek “Tarixi arba ulus” – T.” – :1996 B-258.

¹⁸ Eshov B. “Oʻzbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi” “Yangi asr avlodi” –T- 2012 B-410.

¹⁹ Qarshiy J. “Mulhaqat bis-suroh” 2014. B-180.

to‘langan. Bulardan tashqari “Yasoq” ga ko‘ra davlat xazinasini uchun shulen yoki shulsi solig‘i ham joriy etilgan. Bu soliq chorvadorlardan har suruvdan bir qo‘y va qimiz uchun har ming bosh otdan bitta biya undirilgan. Hunarmandlar va savdogarlar uchun targ‘u yoki tamg‘a solig‘i joriy etilgan. Uning miqdori ishlab chiqilgan yoki sotilgan mahsulotning o‘ttizdan bir qismi kurinishida undirilgan. Soliqlardan tashqari aholi majburiy mehnatga ham jalb etilgan. Bunday majburiy mehnat uchun haq to‘lanmagan. Hukmdor Munke yomlar to‘g‘risida maxsus yorliq ham chiqaradi va unga kura har bir yomga ikki tuman aholisi biriktiriladi. Biriktirilgan aholi yomlarni ot, oziq-ovqat, arava kabi buyumlar bilan taminlashi kerak edi.

Davlat boshqaruvida Masudbek davrida ham muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi. 1271-yilda Masudbek o‘tkazgan pul islohoti natijasida 16 ta shaharlarda zarbxonalar ochiladi hamda doimiy ravishda kumush tangalar zarb etiladi²⁰. Keyingi hukmdor Kebekxon madiny hayotga yaqinlashib, o‘troq turmush tarziga o‘tadi. U Movorounnahrda saroy qurdirib markazga aylantiradi. Shu tariqa Chig‘atoy ulusi davlatchilik tizimi ohirida o‘troq tutmush tarzini qabul qiladi va unga moslashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Juvayniy. “Tarixi Jahonkusho” T.. 1996. B-254.
2. Mirzo Ulug‘bek “Tarixi arba ulus” - T.” - :1996 B-456.
3. Вохидов Ш. Холикова Р. “Урта Осиё хонликлари давлат бошкарви тарихидан”. 2006 й. “Янги аср авлоди”. Б-256.
4. Qarshiy J. “Mulhaqat bis-suroh” 2014. B-180.
5. Eshov B. “O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi” “Yangi asr avlodi” -T- 2012 B-410.

²⁰ Вохидов Ш. Холикова Р. “Урта Осиё хонликлари давлат бошкарви тарихидан”. 2006 й. “Янги аср авлоди”. Б-256.